ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

UZBEKISTAN

LANGUAGE & CULTURE

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz
www.uzlc.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-922X

O‘ZBEKISTON:

TIL VA MADANIYAT

Folklorshunoslik. Shevashunoslik

2025 Vol. 2

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir: Shuhrat Sirojiddinov

Bosh muharrir o‘rinbosari: **Nozliya Normurodova**
Samixon Ashirboyev
Abdumurod Tilavov

Mas’ul kotib: Anvarbek Turdialiyev

Tahrir kengashi

Mominova Bag‘dan (Ostona), Mingboyev Nurlon (Chimkent), Ercan Alkaya (Turkiya), Turdimov Shomirza (O‘zRFA), Jo‘raqoziyev Nodirjon (VM), Alniyazov Ayitmurat (Nukus), Xolmanova Zulxumor (ToshDO‘TAU), Ibrohimov Yo‘ldosh (Nukus), Saidqulov Ilhom (ToshDO‘TAU), Murodova Nigora (Navoiy), Jabborov Xo‘jamurod (Qarshi), Darvishev Ibrohim (Namangan), Aliqulova Hulkar (ToshDO‘TAU), Xidraliyeva Zoxira (ToshDO‘TAU), Norboyeva Shukurjon (Urganch), Rahmonov Navro‘z (Navoiy), Ibragimova Zamira (Nukus), Hakimova Muhayyo ToshDO‘TAU), Umurzoqova Marhabo (ToshDO‘TAU), Ubaydullayev Alisher (O‘zMU), Alimardanov Elyor (ToshDO‘TAU), Egamqulov Kamoliddin (ToshDO‘TAU), Qodirov Umarjon (ToshDO‘TAU), Sayfullayev Baurjon (O‘zMPU).

“O‘zbekiston: til va madaniyat jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2021-yil 30-oktabrdagi № 308/6-sonli qarori bilan filologiya fanlari bo‘yicha ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan. “O‘zbekiston: til va madaniyat jurnalining “Folklorshunoslik. Shevashunoslik” seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro‘yxatidagi “O‘zbekiston: til va madaniyat” akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, o‘zbek folklorining dolzarb masalalari, o‘zbek dostonchiligi, jahon folklori, folklor janrlari, turkiy xalqlar folklori, folklor va yozma adabiyot, adabiyotimizdagi folklor motivlari, o‘zbek shevalarining fonetik, grammatik va leksik xususiyatlari, tarixiy dialektologiya, shevalarning sotsiolingvistik talqini, areal lingvistika, folklor dialektologiyasi, adabiy til va sheva munosabatlari, sheva ma’lumotlarini o‘zbek tili korpusiga teglash, dialektologiyaning nazariy asoslari, jahon dialektologiyasidagi ilg‘or g‘oyalarga oid tadqiqot natijalari nashr qilinadi.

Jurnalning maqsadi – ko‘rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o‘z konsepsiyasiga ega bo‘lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e’lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e’lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti.
O‘zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com

Website: www.uzlc.navoiy-un.uz

MUNDARIJA

Shevashunoslik

Marifatxon Anarbayeva
Turk-Barlos urug‘i nutqida saqlanib qolgan qadimiy turkiy lahja elementlari (Marhamat tumani misolida) 6

Adolat Bekturdiyeva
O‘g‘uz lahjasidagi so‘z birikmalari va yondosh til birliklari 13

Muattarxon Turdixo‘jayeva
O‘zbek tili milliy lingvistik atlasini yaratish tamoyillari 22

Feruza Aminova
Matnazar Abdulhakim she’riyatida morfologik dialektizmlarning aks ettirilishi 29

Durdona Ermatova
The historical development and modern aspects of evidentiality in uzbek language 36

Nazirov Salimbek
Ingliz va o‘zbek tillaridagi ertaklarda uchraydigan barqaror birikmalarni muqobillashtirish masalalari 48

Dilnavoz Asatullayeva
Umumta’lim maktablarida morfonologiyani o‘qitish metodikasi (yozma va og‘zaki nutq misollari asosida) 55

Dilso‘z Rahmonova
Samarqand qipchoq shevalarining areallari 62

Islom Bo‘riyev
Iboralar komponentlari tahlili: O‘TIL (6 jildli; 2022) materiallari asosida 70

Gavhar Toshtemirova
“Gulnor pari” dostonining fonetik -leksik xususiyatlari 80

Rustam Esanov
Xalq ertaklarida qo‘laniladigan ramzlarning lingvistik xususiyatlari . 88

Botir Raxmonov
Til va madaniyat munosabati, etnodialektal birliklarning lingvomadaniy talqini 97

Hayotxon Salayeva
Gurlan leksikasidagi ayrim so‘zlarning “Devonu lug‘otit turk” asari bilan qiyosi 105

Sadoqat Rajabova
Ishtixon shevasining o‘z va o‘zlashma qatlam leksikasi 116

Shahlo Ahmadjonova
Namangan qarluq shevalarining fonetik xususiyatlari va areal lingvistik o‘ziga xosliklari 129

Shirinoy Shuhratova
O‘zbek shevalarida kulolchilik terminlarining o‘rganilishi 138

ISSN 2181-922X 6 — 12

Shevashunoslik
Dialectology

TURK-BARLOS URUG‘I NUTQIDA SAQLANIB QOLGAN QADIMIY TURKIY LAHJA ELEMENTLARI (Marhamat tumani misolida)

Marifatxon Anarbayeva[1]

Abstrakt

Hozirgi Andijon shahrining Marhamat tumani qadimda eng serqatnov Buyuk ipak yo‘li karvoni o‘tuvchi asosiy yo‘llardan biri bo‘lgan. Tuman shevasi hozirga qadar o‘rganilgan emas. Holbuki, sheva leksikasi tarkibida bir qator qadimiy turkiy so‘zlar, boshqa o‘zbek shevalari va adabiy tilda uchramaydigan leksemalar mavjudki, ular hozirgi kunga qadar o‘z yechimiga ega emas. Biz maqolada tumanda yashovchi turk-barlos urug’i mansub aholi shevasi haqida bir necha ma’lumotlar keltirib o‘tamiz.

Kalit so‘zlar: lahja, turk-barlos, turk, arlot, qorluq-chigil, qarluq, jaloyir, bekto‘pi, sayyid, eshon, xo‘ja, oxun, qipchoq, qashqar.

Andijon viloyatining Marhamat tumani shimolda viloyatning Asaka, Xo‘jaobod, Buloqboshi tumanlari, sharq va janubda Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh viloyatining Aravon tumani, g‘arbda Farg‘ona viloyatining Quva tumani bilan chegaradosh. Shuningdek, tojik, qirg‘iz, rus, tatar, koreys, uyg‘ur, qozoq, ukrain va b. ham yashaydi [https://uz.wikipedia.org/wiki/Marhamat].

Tumanda qishloq xo‘jaligidan tashqari xususiy tadbirkorlik, savdo va davlat mussasalarida faoliyat olib boruvchi aholi soni ko‘pchilikni tashkil etadi. Tuman go‘zal tog‘lar, yam-yashil vodiylar, unumdor tekisliklar bilan o‘ralgan.

Tuman O‘zbekistonning boshqa hududlari bilan ham yo‘llar va transport aloqalari tarmog‘i orqali bog‘langan. Mashhur “Buyuk ipak yo‘li” karvoni Marhamt tumani markazidan o‘tgan. O‘zbekistonning madaniy va iqtisodiy o‘lkaga aylanishida muhim mintaqalardan biri sifatida mavjuddir.

Marhamat tumanida turli millat vakillari o‘zbeklar, tojiklar ruslar, qirg‘izlar va boshqa millat vakillari istiqomat qiladi. Muhimi,

[1]*Marifatxon Anarbayeva* – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti doktoranti, AFU oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisi
E-pochta: mariy19umarova87@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0008-1174-639X
Iqtibos uchun: *Anarbayeva M*. 2025. *Turk-Barlos urug‘i nutqida saqlanib qolgan qadimiy turkiy lahja elementlari (marhamat tumani misolida).* O‘zbekiston. til va madaniyat. Folklorshunoslik. Shevashunoslik. 2: 6-12.
Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/GIAV9113

Marhamat tumanida aholining asosiy qismini o‘zbeklar tashkil etadi. Marhamat tumanidagi millatlarning xilma-xilligi mintaqaning tarixiy va madaniy murakkabligini aks ettiradi, har bir guruh hududning umumiy ijtimoiy tuzilishi va merosiga hissa qo‘shadi. Bu millatlarning birga yashashi tumanning urf-odatlari, so‘zlashadigan tillari va madaniy urf-odatlariga ta’sir ko‘rsatib, etnik xilma-xillikning yaratdi. Ushbu ko‘p madaniyatlilik ko‘pincha mahalliy urf-odatlar va kundalik muloqotlarda o‘z aksini topadi.

Tojikiston va Qirg‘iziston o‘zbeklari ushbu tumandagi barloslarni turklar, deb ataydilar. “Turk” so‘zi qadimiy katta urug‘ning nomini bildiradi. Barcha turkiy millatlar qadimiy turklardan kelib chiqqanlar. Ba’zi manbaalarda aytilishicha, turklar Turkistonga qoraxoniylardan avval, keyinchalik asosan barloslar Chingizxon bilan kelganlar, deb ko‘rsatiladi [Husanov 2002;6].

Shunga qaramasdan, Marhamat tumanida yashovchi aholi vakillari o‘z urug’ nomlarini haqida yaxshi biladilar va bu bilan faxrlanadilar. Ular so‘zlashuv va muloqot jarayonida asosan sayyidlar, eshonlar, qashqarilar, bekto‘pilar, oxunlar, turklar, turk-barloslar, qipchoqlar (qirig’iz millatiga mansub, bo‘lib o‘zbeklar ichida yashovchi aholi vakillari) kabi urug' nomlari bilan bir-birlarini tanishtiradilar yoki nomlaydilar.

Turk-barlos va barlos atamasi o‘zbeklarning kelib chiqishiga doir ko‘plab manbalarda uchraydi. Quyida bir necha namunalardan misol keltiramiz:

Navoiyning lirik va epik asarlarida qator o‘rinlarda arlot etnik urug‘ nomini tashigan. Jumladan, shoir devonlarida mahbubaning sho‘x-shaddodligi, o‘xshashi yo‘q dilbarligini, barlos, tarxon, sulduz urug‘larini tilga olish bilan yanada yorqinroq, ta‘sirchanroq tasvirlashga erishgan. Bunda arlot yoki boshqa nomlar mazkur urug‘ vakillariga xos xislat va fazilatlarni alohida ta‘kidlashga xizmat qilgan bo‘lsa, boshqa tomondan, Chig‘atoy ulusiga rahbarlik uchun yuborilgan to‘rt qo‘shin boshliqlarining misralarda ketma-ket qalamga olinishi yuqorida aytib o‘tilgan tarixiy ma‘lumotni tasdiqlaydi.

Kim ko‘ngul sayd etsa, lo‘liy bo‘lsakim tut mug‘tanim,

Aytman arlot yo barlosdin mirzoda top [6].

Navoiy sevdi bir lo‘liyni kezdik rub’i maskunda,

Agar arlot, agar barlos, agar tarxon, agar sulduz [203].

Sanamlar husnidin maqsud yor o‘lmish Navoiyg‘a,

Agar barlos, agar tarxon, agar arlot, agar sulduz [212].

Baytlar mazmunidan anglanishiga ko‘ra, garchi lirik qahramon ishqi tushgan lo‘livash – sho‘x ma‘shuqaning qaysi urug‘dan bo‘lishi unchalik e‘tiborga molik emasdek ko‘rinsa-da, arlot va boshqa urug‘ nomlarining qayta-qayta eslanishi bu qavmlarga mansub yigit va qizlarning g‘oyatda latofatli, diltortar, jasur bo‘lganliklarini ko‘rsatib turibdi. “Vaqfiya” asaridan olingan quyidagi parcha ham fikrimizni quvvatlaydi: “... *Chun zamonning azimushshon sodot va fuzalosi va davronning karimulxulq quzot va ulamosi va temuriy najod shahzodalar va “barlosiy” nihod ozodalar va “arlo-*

tiy" ismlik sadrnishinlar va "tarxoniy" rasmlik ayshguzinlar va "qiyot" nasablik mutaayyinlar va "qo'ng'irot" hasablik mutamakkinlar va "uyg'uriy" sifot baxshilar va "uyg'ur"chargalik yaxshilar va "cho'li"lik biyobonida jonsiporli qilg'on jondorlar va boyrilik ayyomida xizmatkorlik qilg'on jonsiporlar va "jaloyir" g'avg'osi va "qavchin" alolasi mavjud erdi va har mavjudqa bir maqsud va podshohona inoyat va har qaysig'a bir munosib mansab bilan sarbaland va xusravona tarbiyat, har birisini muvofiq amal shug'lig'a payvand qildilar".

Navoiy asarlarida, xususan, devonida barlos nomiga bir necha o'rinlarda duch kelinadi. G'azallarda, ko'pincha, barlos termini Tarxon urug'i bilan birga qo'llanganini ko'rish mumkin:

Ey Navoiy, naylay el tarxon bila barlosini
Kim, berur ko'nglumga holo molish ul sho'xi malash [262].
Solmoq o't barlosu tarxon orazi ne sudkim,
Bizni kuygan chehra birla bir yasoqi kuydurur [144].
Ey Navoiy, piri soqiyvashqa andoq men xarob

Kim, unutmishmen jahon tarxon ila barlosidin [466].

Shuningdek, ijodkor aksar o'rinlarda muayyan urug' nomi bilan bog'liq biror kechinmani badiiy so'zda manzaralashtirar ekan, ma'shuqa tilga olinayotgan urug' nomiga Lo'li, Lo'livash qarshi qo'yiladi. Bu esa Navoiy asarlarida tilga olingan urug' vakillari jang-u jadalda ham, aql-u husnda ham tengsiz bo'lib, doim kishilarni hayratga solib kelgani ma'lum bo'ladi.

Navoiy sevdi bir lo'liyni kezdeg rub'i maskunda,
Agar arlot, agar barlos, agar tarxon, agar sulduz [203].

Alisher Navoiy "Vaqfiya" asarida "Barlosiynihod ozodalar" tarzida ibora qo'llar ekan, Husayn Boyqaroga tobe' bo'lgan bekzoda va amaldorlar safida barlos amirlari ham bo'lganini maxsus qayd etib o'tgan. Vaqfiya||da Husayn Boyqaro taxtga o'tirishi munosabati bilan uning xizmatiga kirgan yuksak martabali amir va beklardan bahs yuritadi. Shoir ularning har biriga podshohona inoyat va munosib mansab berilganini ham yozar ekan, jaloyir g'avg'oli kishilarga ham uyg'un amallar berilganini alohida ta'kidlaydi: "*…Chun zamonning azimushshon sodot va fuzalosi va davronning karimulxulq quzot va ulamosi va temuriynajod shahzodalar va "barlosiy" nihod ozodalar va "arlotiy"ismlik sadrnishinlar va "tarxoniy" rasmlik ayshguzinlar va "qiyot" nasablik mutaayyinlar va "qo'ng'irot" hasablik mutamakkinlar va "uyg'uriy" sifot baxshilar va "uyg'ur"chargalik yaxshilar va "cho'li"lik biyobonida jonsiporli qilg'on jondorlar va boyrilik ayyomida xizmatkorlik qilg'on jonsiporlar va "jaloyir" g'avg'osi va "qavchin" alolasi mavjud erdi va har mavjudqa bir maqsud va podshohona inoyat va har qaysig'a bir munosib mansab bilan sarbaland va xusravona tarbiyat, har birisini muvofiq amal shug'lig'a payvand qildilar" [249]*.

Demak, Alisher Navoiy bergan ma'lumotga ko'ra, XV asr Xuroson tarixiy siyosiy muhiti haqida tasavvurlar boyiydi, shuningdek, bu dalil Husayn Boyqaro o'z saltanatini boshqarishda qator qabilalarning vakillariga tayangani va har qaysisiga muvofiq amallar berib, harbiy mahorat egasi bo'lganini tasdiqlaydi. Ko'rinadiki, shoir xalq orasida ko'p bo'lgan, aksar o'zbek urug'larining nomlarini, muayyan

elatlarning ijtimoiy mavqei, ko‘rinishi, yurish-turishini yaxshi bilgan. Bu esa uning asarlari o‘rta asrlardagi turkiy xalqlarning etnografiyasi, madaniyati haqida yorqin tasavvur beruvchi beqiyos adabiy manbaligini ko‘rsatadi.

Barslos, barulas, ballos – o‘zbek xalqi tarkibiga kirgan qabilalardan biri. XIII asrning. II yarmida (Ilaili) daryosi bo‘ylaridan Qashqadaryo vohasiga ko‘chib kelgan. XIV-XV asrlarda. shu voha aholisining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim rol o‘ynagan. Amir Temur barlos qabilasidan bo‘lib, sarkarda va viloyat amirlarini asosan shulardan tayinlagan. Barloslarning bir guruhi Temuriylar va Boburiylar davrida Afg‘oniston va Hindiston hududiga ko‘chib o‘tgan. XIX asrda birgina Dehli shahri atrofida 15 ming barlos yashaganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Ammo barlos qabilasining asosiy qismi O‘zbekistonning janubiy hududlarida qolib, dehqonchilik va chorvachilik bilan mashg‘ul bo‘lgan. Barloslar o‘zbek tilining qorluq-chigil lahjasida so‘zlashgan. Barloslar Kesh (hozirgi Shahrisabz) hududini nazorat qilgan va uning barcha nasl-nasabi shu hudud bilan bog‘langan[Manz 1989; 156]. Xalqi ko‘chmanchi bo‘lib, qolgan qo‘shni qabilalarning aksariyatidan farqli o‘laroq, barloslar o‘troqlashgan qabila edi.[Gérard Chaliand 2014; 151]. O‘rta Osiyoning tub aholisi bilan keng aloqalar tufayli qabila islom dinini hamda arab va fors tillarining kuchli ta’sirida bo‘lgan qarluq tarmog‘iga mansub turkiy chig‘atoy tilini[Doerfer G. 207] qabul qilgan edi.

Quyidagi ma’lumotlar barlos urug’u o‘zbek millatining shakllanishida asosiy o‘rin egallagan urig’lardan ekanligi va ular qarluq lahjasida so‘zlashganligini ko‘rsatadi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili asosan qarluq lahjasiga kiruvchi Farg‘ona – Toshkent shevalari asos qilib olingan. Olimlarning fikricha, Toshkent shevasi fonetik jihatdan, Farg‘ona shevasi morfologik jihatdan adabiy tilga asos bo‘lgan. Shevalarning o‘ziga xos xususiyatlari adabiy tilning ta’siri bilan asta-sekin zaiflashadi va yo‘qola boradi.

Hozirgi Andijon shevasi *y* lovchi o‘zbek shevalarining alohida keng tarmog‘idir. Bu shevani o‘zbek tilining boshqa shahar shevalaridan farqlovchi bosh va muhim belgilari 9 unli fonemali ekanligi, *x* va *h* undoshlarining keskin farqlanishi, I-II shaxs kishilik olmoshlarining “men”, “sen” tarzida aytilishi , *o‘z* olmoshining II shaxs ko‘plik va hurmatlash formasida *özïjnär* shaklida ishlatilishi, ohirida burun *ng* undoshi bo‘lgan fe’llarga -*lar* qo‘shimchasi qo‘shilganda –*narga* aylanib: *keliynar, boriynar* (ad. tilda *kelinglar, boringlar*) formasida kelishi…. [Ibrohimov 1967; 8].

Darhaqiqat, yuqoridagi holat Marhamat tuman shevasida ham o‘z aksini topadi. Lekin hamma qishloqlarda ham – *nar* qo‘shimchasi qo‘llanilmaydi. Ko‘p hollarda *özalarıŋ*, se*nlar, kelišövr, bārišövr* shaklida talaffuz qilinadi.

Marhamat tumani Andijon shaharining chegara hududida joylashgan tumanlaridan biri hisoblanadi. Biz tuman shevasini o‘rganish jarayonida Andijon shevasini o‘rganish bo‘yicha qilingan ilmiy ishlardan ham namunalar oldik. Lekin tilda tashqi va ichki omillar ta’siridagi o‘zgarishlarni hisobga olib, eski ma’lumotlarni yangilari

bilan solishtirib o‘rgandik. Umumiy jihatdan Andijon shevasining fonetik, morfologik va leksik tomonlarini chuqur o‘rgangan S.Ibrohimovning ishini aytmaganda Marhamat tumani shevalari haqida jiddiy fikrni o‘qimadik. Undagi yangi ma’lumotlarga qaraganda XIII asrda Andijon Qoraxoniyalar boshqaruvida bo‘lagan va shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, Andijon shevasiga ham uning ta’sir kuchi sezilmay qolmadi.

Hozrgi Marhamat shevasida *i* tovushi bazan talaffuzda eshtilmaydi lekin biz ***i*** tovushini tushirib ketolmaymiz chunki ***i*** tovishi juda qisqa talaffuz qilinadi. ***Qorinim-qānim, o‘qish-öqiš, qaychi-qäjči,*** I-II shaxs kishilik olmoshlari **“*men*”** va “sen” dan tashqari “man” va “san”ni (man, san asosan o‘zlarini’ turklardanmiz, barlos urug‘idanmiz deyuvchi aholi tilida ko‘p uchraydi) ham qo‘llaydi. Andijonning janubi-sharqiy hududlariga kiruvchi Qo‘rg‘ontepa, Jalaquduq, Xo‘jaobod tumanlarining ko‘p qishloqlari qipchoq lahjasida so‘zlashadilar. G‘ozi Olim Yunusov “O‘zbek lahjalarining tasnifida bir tajriba” kitobida Andijonning janubi-sharqiy hududidagi qipchoq lahjasida so‘zlashuvchilar nutiqda lab uyg‘unligining kuchli saqlanishi borligini ta’kidlagan va bu holat shevaning boshqa o‘zbek-qipchoq guruhlaridan farqli ekanligini ta’minlaydi. Qipchoq shevasida lab uyg‘unligi ikkinchi va uchunchi hijolarda ham saqlanadi: *tāpālās* (topa olasiz), *üjügä*(uyiga) kabi. Bu shevani o‘zbek-qipchoq lahjasiga kirgan boshqa lahjalardan ajratadigan yana bir xususiyat *-lak* qo‘shimchasining mavjudligidir. Shevada so‘zlarga bo‘lishsizlik semasini berish uchun *-lak (läk*) qo‘shimchasidan foydalaniladi. Bu “…*lak* odati qirg‘izchada va ba’zi Oltoy shevalarida ishlatiladi. Bu qipchoq shevasida “ U boralak” demak u kelgani yo‘q demakdir”. Yuqorida ko‘rsatib o‘tilganiday *-lak* qo‘shimchasi inkor ma’noni berish uchun xizmat qiladi. Bugungi kunda ham Qo‘rg‘ontepa (Dardoq, Qizilto‘qay, Dehqonchek, Yangiyo‘l), Jalaquduq (Abdullabiy, Ilich, Oxunboboyev, Marks) hududlarida shu ma’noda ma’noda qo‘llanadi.

Chigil qabila ittifoqi tili asosida rivojlangan bu adabiy tilda 8-9 unli fonema qo‘llanilgan bo‘lib, singarmonizm birmuncha saqlangan*, x-h* va *f-p* undoshlari esa keskin farqlanib, qaratqich va tushum, jo‘nalish va o‘rin-payt kelishiklari o‘z belgilari bilan to‘liq shakllangan. Demak, bu adabiy til o‘z rivoji davomida turkiy-o‘zbek tilining boshqa lahjalarining kerakli elementlarini ham o‘z ichiga olib o‘sgan. Bu adabiy tilning xususiyatlari o‘zbek tilining boshqa dialektlaridan ko‘ra andijon shevasining xususiyatlariga ko‘proq mos va yaqindir. Bobir, Alisher Navoiyning asarlari Hirotda yozilib nash’u namo topgan bo‘lsa-da, andijon tilida yozilgan deydi[Бобирнома 2008; 60]. Holbuki, Navoiyning Andijonda bo‘lganligi ma’lum emas. Bu hol chigil qabila ittifoqining tili asosida rivoj topgan andijon shevasi Andijon, Asaka va yuqorida ko‘rsatilagan joylardagina emas, balki hirot va uning atrofida ham tarqalgani va Navoiyning ota-onalari yashagan joyning shevasi ham Andijon shevasi bilan ekani natijasi bo‘lsa kerak. O‘zining uzoq muddatli kurashi davrida turli shahar va muzofotlarni kezib, har xil turkiy shevalar bilan tanishgan Bobir XVI asrdagi umumiy adabiy tilda andijon shevasi haqiqatdan ham yetakchi ekanini sezgan. Hindistonda Bobur va Humoyun saroyida ham Andijon shevasida so‘zlashar edilar va shoirlar esa shu shevaga aso-

slangan adabiy tilda she’rlar yozar edilar [Xumoyunnoma 2016; 23].

Marhamat tumani shevasi o‘zbek tilining dialektal rang-barangligini va turkiy tillarning tarixiy evolyutsiyasini o‘rganish uchun muhim manba hisoblanadi. Ushbu shevani chuqurroq tadqiq qilish orqali nafaqat o‘zbek tilining rivoji, balki mintaqaning etnografik va madaniy merosi haqida yangi ma’lumotlar olish mumkin.

Adabiyotlar

Alisher Navoiy. 2013. TAT. 2-jild. Navodir ush-shbob. – Toshkent. G‘afur G‘ulom.

Alisher Navoiy. 2013. TAT. 3-jild. Badoye‘ ul-vasat. – Toshkent. G‘afur G‘ulom.

Alisher Navoiy. 2013. TAT. 10 jildlik. 4-jild. Favoyid ul-kibar. – Toshkent.

Alisher Navoiy. 2013. TAT. 4-jild. Favoyid ul-kibar. – Toshkent.

Manz B.F., The rise and rule of Tamerlan, Cambridge University Press, Cambridge 1989,-156, p.7.

Gérard Chaliand, A Global History of War: From Assyria to the Twenty-First Century, University of California Press, California 2014, p.151.

https://www.facebook.com/savodxon/posts/2356051988007608/

Заҳириддин Муҳаммад Бобир. 2008. Бобирнома. – Toshkent: ФАН.

Ibrohimov S. 1967. O‘zbek tilining Andijon shevasi. – Toshkent: Fan

Doerfer G. 2007. “Chaghatay Archived November 18, 2007, at the Wayback Machine”, in Encyclopædia Iranica, Online Edition.

Husanov O. 2022. Kelajak haqida xotiralar. Andijon. b.https://uz.wikipedia.org/wiki/Marhamat.

ANCIENT TURKIC DIALECT ELEMENTS PRESERVED IN THE SPEECH OF THE TURK-BARLOS TRIBE (on the example of the Marhamat district)

Marifatkhon Anarbayeva[1]

Abstarkt

The Marhamat district of the present-day city of Andijan was once one of the main routes of the most frequented Great Silk Road caravans. The dialect of the district has not been studied to date.

[1]*Marifatkhon Anarbayeva* – PhD student of the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi, teacher of the higher educational institution of the AFU
E-mail: mariy19umarova87@gmail.com
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0008-1174-639X
For citation: *Marifatkhon Anarbayeva.* 2025. *Ancient Turkic dialect elements preserved in the speech of the Turk-Barlos tribe (on the example of the Marhamat district).* Uzbekistan. Language and Culture. Folklore. Dialectology. 2: 6-12. Doi. 10.52773/tsuull.uzlcfolklore.2025/GIAV9113

However, the dialect lexicon contains a number of ancient Turkic words, other Uzbek dialects, and lexemes not found in the literary language, which have not yet been solved. In the article, we will provide some information about the dialect of the Turk-Barlos tribe living in the district.

Key words: dialect, Turk-Barlos, Turk, arlot, qarluq-chigil, qarluq, jaloyir, bektopi, sayyid, eshon, khodja, akhun, kipchak, qashkar.

References

Alisher Navoiy. 2013. TAT. 2-jild. Navodir ush-shbob. – Toshkent. G‘afur G‘ulom.

Alisher Navoiy. 2013. TAT. 3-jild. Badoye‘ ul-vasat. – Toshkent. G‘afur G‘ulom.

Alisher Navoiy. 2013. TAT. 10 jildlik. 4-jild. Favoyid ul-kibar. – Toshkent.

Alisher Navoiy. 2013. TAT. 4-jild. Favoyid ul-kibar. – Toshkent.

Manz B.F., The rise and rule of Tamerlan, Cambridge University Press, Cambridge 1989,-156, p.7.

Gérard Chaliand, A Global History of War: From Assyria to the Twenty-First Century, University of California Press, California 2014, p.151.

https://www.facebook.com/savodxon/posts/2356051988007608/

Заҳириддин Муҳаммад Бобир. 2008. Бобирнома. – Toshkent: ФАН.

Ibrohimov S. 1967. O‘zbek tilining Andijon shevasi. – Toshkent: Fan

Doerfer G. 2007. “Chaghatay Archived November 18, 2007, at the Wayback Machine”, in Encyclopædia Iranica, Online Edition.

Husanov O. 2022. Kelajak haqida xotiralar. Andijon. b.https://uz.wikipedia.org/wiki/Marhamat.

Jurnal 2017-yil 26-oktabrda O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro‘yxatdan o‘tgan. Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan (30.10.2021. No 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko‘chasi 103-uy. Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.

Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz

E-mail: uzlangcult@gmail.com